

PSIXOLOGIYA FANI VA UNING VAZIFASI

Ibadova Zohida Nuridinovna
*Toshkent viloyati Örta Chirchiq tumani MMTBga qarashli 49-
umumtalim maktabi psixologi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10457408>

Abstract: This article describes modern psychology and its place in the system of other sciences. In order to use the information of the science of psychology for practical purposes and, first of all, in education and training, as well as in production, organization and consolidation of labor, in medicine, art and similar fields, it is necessary to know the laws of the development of psychology.

Key words: Psychology, philosophy, consciousness, thinking, sociology, cybernetics, psychic facts, mechanisms, individual psychological characteristics, temperament, animism, cognitive processes, cognitive activities.

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi zamон psixologiyasi va uning boshqa fanlar tizimida tutgan o'rni haqida yoritib berilgan. Psixologiya fanining ma'lumotlaridan amaliy maqsadda va, avvalo, ta'lim-tarbiya ishida va, shuningdek, ishlab chiqarishda, mehnatni tashkil etish va ixchamlashtirishda, tibbiyotda, san'at va shunga o'xshash sohalarda foydalanmoq uchun psixikaning taraqqiyot qonunlarini bilish kerak.

Kalit so'zlar: Psixologiya, falsafa, ong, tafakkur, sotsiologiya, kibernetika, psixik faktlar, mexanizmlar, individual psixologik xususiyatlari, temperament, animizm, bilish jarayonlari, bilish faoliyatları.

Psixologiya-inson faoliyati va hayvonlar xatti-harakati jarayonida voqelevning psixik aks etishi, ruhiy jarayonlar, holatlari, hodisalar, xislatlar to'g'risidagi fan, psixologiyaning tadqiqot predme-tiga sezgilar va idrok obrazlari, tafakkur va hissiyot, faoliyat va muomala kabi psixologik jarayonlar, kate-goriyalar kiradi.

Psixologiyaning asosiy vazifalari-psixika qonuniyatlarini, inson ruhiy holatlari shakllanishini filogenetik va ontogenetik tarak,-qiyot birligida ochishdan iboratdir.

Mazkur vazifalar yechimini topishda Psixologiya bir tomonidan, biol. fani sohalari bilan, jumladan, fiziologiya bilan, boshqa tomonidan esa, sotsiologiya, pedagogika, madaniyat tarixi, mantik hamda ijtimoiy fanlar bilan jips aloqaga kirishadi. Psixologiya eng avvalo, psixikaning insonga xos shakli bo'lmish ong va o'zini o'zi anglashni tadqiq etadi.

Antik davrdan boshlab psixologik bilimlar falsafa va tibbiyot fanlari negizida rivojlanib kelgan. Yunon shifokorlari Gippokrat, Erasistrat psixikaning organi miya ekanligini bilganlar va inson jonini koinotning ashyoviy bo'lagi sifatida (Demok-shyaning moddiyunchiligi asosida) talqin qilganlar. Ularning g'oyalari Platonning jon abadiyligi to'g'risidagi ta'limotiga qarama-qarshi qo'yilgan.

Aristotel «Jon to‘g‘risida»gi asarida psixologik tushunchalar tizimini ishlab chiqdi.

O‘rtalarda psixikaga nisbatan har xil ko‘rinishdagi g‘ayritabiiy qarashlar hukmronlik qildi. Shu tufayli psixologik bilimlar rivojlanmay qoldi. Ammo ba’zi faylasuflar va shifokorlar (Ibn Sino va b.) asarlarida bu sohada olg‘a qadam qo‘yildi. Inson xususiyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar qad. qo‘lyozmalar, yodgorliklarda o‘z aksini topa boshladi. Turli mamlakatlarda va shaharlarda tuzilgan akademiyalarda (Xorazm, Samarqand, Kiev, Moskva va b. shaharlarda) Psixologiya yuzasidan tinglovchilarga saboq berilgan.

Psixologiya fan sifatida psixik faktlar, ularning qonuniyatlari va mexanizmlarini o‘rganadi. Psixologiya, asosan, psixikani keng doirada tadqiq qiladi. Psixik faoliyatlar quyidagi jarayonlarni o‘z ichiga oladi:

- bilish faoliyatları: diqqat, nutq, faoliyat;
- bilish jarayonları: sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur;
- shaxsning hissiy irodaviy sohasi: hissiyot, iroda;
- shaxsning individual psixologik xususiyatlari: temperament, xarakter, qobiliyat;

Psixologiya haqidagi fikrlar qadim zamonlardan beri mavjuddir. Ilk davrlarda psixologik xususiyatlarni jonning ishi deb tushuntirilgan. Jonning o‘zi esa odam tanasidagi maxsus ikkilamchi jism deb qaralgan. Bunday tasavvurlar animizm deb ataladi. Animizm so‘zi anima – “jon” degan ma’noni anglatadi. Jon o‘z mohiyatiga ko‘ra olovsimon uchqundan iborat ekanligi Geraklit tomonidan, yoki olovsimon atomdan iborat ekanligi Demokrit tomonidan ta’kidlangan. Psixologiya fanining rivojlanishida Ch.Darvinning evolutsion nazariyasi nihoyatda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Ruhiy jarayonlarning evolutsion rivojlanish dinamikasida tashqi muhit hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi. E.Gekkel “bilimdon va fikrlaydigan kishilardan birortasi ham psixologiyaning asoslarini faqat asab sistemasining fiziologiyasidan izlash kerakligiga shubhalanmasa kerak”, - degan edi.

Psixologiyani o‘rganish odamni psixika haqidagi va psixik hayotning xilma-xil hodisalar haqidagi bilimlar bilan boyitibgina qolmay, shu bilan birga odamning aqlini ham o‘sirishga yordam beradi. Odam aqlini o‘sirish, jumladan, yangi bilimlar va ko‘nikmalarni tezroq egallash, yangi nazariy va amaliy vazifalarni to‘g‘ri hal qilish qobiliyatini takomillashtirishda, o‘z fikrlarini nutqda to‘g‘ri ifodalay bilish va boshqalarning nutqini to‘g‘ri tushuna bilishda ham o‘z ifodasini topadi. Endi kundalik turmushga oid psixologiya bilan ilmiy psixologiya o‘rtasidagi tafovutlaar bilan tanishamiz. Kundalik turmushga oid psixologik bilimlar, dastavval, yaqqol va alohida olingan holat, vaziyatni o‘z ichiga oladi. Ilmiy psixologiya esa muayyan metodlar, vositalar, uslublar, usullar, operatsiyalar yordamida ma’lumotlar to’plash va ularni umumlashtirishga intiladi, izlanayotgan obyektning xususiyati, holati, munosabati, bog’lanishi kabilarni aks ettiruvchi ilmiy tushunchalar, ta’riflar, qonuniyatlar, xossalalar yordamida psixologik mexanizmlar kashf qilishga harakat qiladi.

Psixik hayot turli-tuman hodisalarda namoyon bo‘ladi. Psixik hayot hodisalarida psixik jarayonlar, psixik mahsullar va psixik holatlar ajratiladi. Psixik jarayon – psixik hodisaning qonuniy, ketma-ket o‘zgarishi, uning bir stadiya yoki fazodan ikkinchi stadiya yoki fazoga o‘tishidir. Psixik mahsullar – psixik jarayonlarning natijasidir. Bularga sezgi va idrok larning obrazlari, tasavvurlar, muhokamalar, tushunchalar shaklidagi subyektiv psixik mas’ullar kiradi.

Psixologik voqelik-fakt deganda, subyektning ichki kechinmalarining tarkibiy qismlari bilan bir qatorda ularning ob'ektiv shakllari orqali psixikaning xususiyatlari, holatlari, qonuniyatlarini o'rganish tushuniladi. Boshqacha so'z bilan aytganda, inson ongidan tashqari, unga bog'liq bo'limgan holda hukm suruvchi ob'ektiv borliq, ya'ni atrofimizdagi narsa va hodisalar, muhit, sharoit va boshqalarning psixikada aks etishi psixologik voqelik deb ataladi.

Hozirgi zamon psixologiyasi va uning boshqa fanlar tizimida tutgan o'rni Psixologiya yaxlit va mustaqil fan sifatida odamlarda gumanistik mentalitetning shakllanishiga xizmat qilib, inson omiliga aloqadorligi uning shu yo'nalishdagi muammolarni ma'lum ma'noda o'rganadigan barcha fanlar bilan bevosita aloqasini taqozo etadi. Bular birinchi navbatda ijtimoiy-gumanitar fan sohalari bo'lib, psixologiyaning ular orasidagi mavqeい o'ziga xos va yetakchidir.

1. Falsafa va uning oxirgi paytlarda shakllanib, rivojlanib borayotgan ijtimoiy falsafa qismi bilan bo'lgan aloqa bu ikkala fanning inson va uning hayoti mohiyatini to'la anglash va uning rivojlanish tendentsiyalarini belgilashdagi o'rni va ahamiyatidan kelib chiqadi. Tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanishiga oid bo'lgan umumiyligini qonuniyatlar va printsiplarni psixologiya falsafaning bazasidan oladi va shu bilan birga o'zi ham inson ongi va tafakkuri qonuniyatlar sohasidagi yutuqlari bilan falsafani boy ma'lumotlarga ega bo'lishiga yordam beradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, mustaqillik mafkurasi va milliy ongning shakllanishiga taalluqli umumiyligini qonuniyatlarni izlashda ham yurtimiz sharoitida bu ikkala fan-falsafa va psixologiyaning hamkorligi bevosita sezilmoqda. Bu bog'liqlik avvalo yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirish muammosi kundalang turgan tarixiy davrda milliy mafkura va milliy g'oyani shakllantirish kabi dolzarb vazifani bajarishga xizmat qilmoqda.

2. Sotsiologiya fani ham yangicha ijtimoiy munosabatlar sharoitida o'z taraqqiyotining muhim bosqichiga o'tgan ekan, psixologiya ushbu fan erishgan yutuqlardan ham foydalanadi, ham ularning ko'lami kengayishiga baholi qudrat xizmat qiladi. Ayniqsa, psixologiyadan mustaqil ravishda ajralib chiqqan, bugungi taraqqiyot davrimizda alohida ahamiyat kasb etgan ijtimoiy psixologiyaning sotsiologiya bilan aloqasi uzviy bo'lib, ular jamiyatda ijtimoiy taraqqiyot va progressni ta'minlash ishiga xizmat qiladi. Qolaversa, xuquqiy, demokratik davlat qurish ishini sobitqadamlik bilan amalga oshirayotgan O'zbekiston aholisining xuquqiy madaniyatini va demokratik o'zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorligini amalda ta'minlash, bu sohada mutazam tarzda ijtimoiy fikr va insonlar dunyoqarashlaridagi o'zgarishlarni o'z vaqtida o'rganish, bashorat qilish va taraqqiyot mezonlarini ishlab chiqishda ikkala fanlar metodologiyasi va metodlarini birlashtirish tadbiqiylahamiyat kasb etadi.

3. Pedagogika bilan psixologiyaning o'zaro hamkorligi va aloqasi an'anaviy va azaliy bo'lib, ularning yosh avlod tarbiyasini zamon talablari ruhida amalga oshirishdagi roli va nufuzi o'ziga xosdir. Respublikamizda amalga oshirilayotgan yangi «Ta'lim to'g'risidagi Qonun» hamda «Kadrlar tayyorlashning milliy Dasturi»ni amalga oshirish ham ikki fan hamkorligi va o'zaro aloqasini har qachongidan ham dolzarb qilib qo'ydi.

Adabiyotlar:

1. Shamshetova A., Melibayeva R. va boshqalar. Umumiy psi xologiya fanidan UMK., 2016.
2. P.I.Ivanov, M.E.Zufarova. Umumiy psixologiya – Toshkent – 2008. – bet 9-12.
3. Y.M.Fayziyev. Umumiy va tibbiy psixologiya – Toshkent – “ILM ZIYO” – 2016. – bet 7.
4. Safayev N.S., Mirashirova N.A., Odilova N.G. “Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti”:– T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.